


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI

2024

QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI
YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY MARKAZI

Respublika ilmiy-amaliy
anjumani

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARINING TA'LIM
SIFATI MONITORINGI NATIJALARI: MUAMMO VA
YECHIMLAR



QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARINING TA'LIM SIFATI MONITORINGI NATIJALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI
(QASHQADARYO VILOYATI, 2024-YIL 21-IYUN)**

**“МОНИТОРИНГ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ УЧИТЕЛЕЙ
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ: ПРОБЛЕМЫ И
РЕШЕНИЯ”**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ
(КАШКАДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ, 21 ИЮНЯ 2024 ГОДА))**

**RESULTS OF TEACHING QUALITY MONITORING OF HIGH
SCHOOL TEACHERS: PROBLEMS AND SOLUTIONS**

**REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE
((KASHKADARYA REGION, JUNE 21, 2024))**

jamiyatda ilmiy salohiyatlari kadrlar salmog‘ini oshishiga, va albatta xalqning ma’naviyati yanada yuksalishi, hayoti farovonlashishiga munosib xissa qo‘sha olgan bo‘ladi²⁰.

Xulosa o‘rnida milliy-ozodlik harakati fidoyilari safida faol harakat qilgan Abdulla Avloniy bobomizning: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, - degan jumlalarini keltirib o‘tishni joizdir. Darhaqiqat, bola yosh nihol va qayoqqa egsa shu tomonga qarab o‘saveradi. Yoshlarimizga berilgan, berilayotgan va beradigan tarbiya yurtimiz kelajagi hamda taqdirini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr.
2. Ernazarova, M. J. (2023). Using didactic games to improve the intellectual abilities of primary school students. Inson farovonligini o‘rganishda fanlararo yondashuv, 307-309.
3. Эрназарова, М. Ж. (2023). Качественные знания – основа благополучия человека. Inson farovonligini o‘rganishda fanlararo yondashuv. 304-307.
4. Ernazarova Munisxon Jo‘raqulovna ”Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish” magistrlik dissertatsiyasi 2023-yil.
4. I.Alqarov, R.Mamatqulova, X.Norqulov. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogiikasi. -T .: «Fan va texnologiya», 2009.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR.

Ernazarova M.J.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Xursanova O‘. B.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti 2-bosqich talabasi

Tayanch so’zlar: o‘qituvchi, pedagogika, kompetensiya, bilim, kompetentlik, ko‘nikma, ma’naviyat, malaka, bilim, tarbiya, odob-axloq, yondashuv.

²⁰ Качественные знания – основа благополучия человека. Ernazarova M.J ‘Inson farovonligini o‘rganishda fanlararo yondashuv’ xalqaro ilmiy konferensiya materiallari I QISM Toshkent – 2023

Ключевые слова: учитель, педагогика, компетентность, знание, компетентность, умение, духовность, компетентность, знания, воспитание, манеры, подход.

Key words: teacher, pedagogy, competence, knowledge, competence, skill, spirituality, competence, knowledge, upbringing, manners, approach.

Jahon ta’lim tizimidagi islohotlar va ta’lim bozorida raqobat muhitini shakllanishi mutaxassislar tayyorlash tizimini kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va ta’lim standartlarida belgilangan kompetensiyaviy talablarni uzluksiz takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya mamlakatlarning ilmiy markazlarida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy tayyorlash borasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, shu bilan birga ta’lim jarayonini amalga oshirishning eng maqbul metodlarining modellarini ishlab chiqish, ta’lim, ta’lim muhitini tashkil etish va amalga oshirish uchun alohida ehtiyoj mavjud. Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligiga ta’sir etuvchi pedagogik omillarni rivojlantirishni talab qiladi. Ta’lim jarayonini tashkil etishda ta’lim jarayonini shakllari, metodlari va vositalarini modernizasiya qilish, kasbiy kompetensiyani shakllantirishning metodlari, ilmiy asoslarini ishlab chiqish, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy uslubini tizimili ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda ta’lim jarayonini isloh qilish va ta’limning xalqaro talablariga to’liq mosligini ta’minalash maqsadida muyayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O’zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida malakali mutaxassis tayyorlashda ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyatga joriy etish uchun ta’lim tashkilotlarida bo’lajak ta’lim o’qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish zarurligi ko’rsatilgan.²¹

Respublikamizda ta’lim sifatini oshirish jarayonida bo’layotgan o’zgarishlar, ya’ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimizning rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi kun oliy ta’limining asosiy maqsadi – har tomonlama rivojlangan o’qituvchini tayyorlashga qaratilgan. Bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ta’sir etuvchi pedagogik omillarini yaratish muhim vazifalardan biri bo’lib, pyedagogik shart-sharoitlar bu jarayonni yaratibgina qolmay, uning hozirgi holatini ham belgilab beradi.

²¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xaqimiz bilan birga quramiz. – T.: O’zbekiston, 2017. – 488 b.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik turkum fanlarining integrasiyasi, fanlararo aloqadorlik darajasida ta'lim yondashuvi asosida pedagogik faoliyatda hamda muammoli masalalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga beriladigan talablar nuqtai nazaridan kasbiy kompetensiya talabalarning ma'lum bir vaziyatda kasbiy faoliyat metodlarini qo'llash malakasini anglatadi.²²

Kasbiy kompetensiya – boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish shakllari, metodlari va vositalarini bilish, ularni o'zlashtirish, amalda qo'llash, kasbiy natijalarini sifatli tahlil qilish, ilg'or pedagogik va xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'lim jarayonini loyihalash, tavsiflanganlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir. Bitiruvchi talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanishi pedagogik jarayonda namoyon bo'ladi.

Tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu turli sohalarda maqsadli ta'lim yondashuv, uning intellektual va axloqiy rivojlanishiga asoslangan inson faoliyati.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish o'qituvchilarni tayyorlashdagi eng qiyin vazifalardan biridir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini o'rganishga bag'ishlangan manbalarda quyidagi turlar ajratilgan:

- maxsus kompetensiya – pedagogik faoliyatni yetarli darajada bilishi, ularning kelajakdagi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olishi;

- ijtimoiy – birgalikdagi pedagogik faoliyat, hamkorlik, shuningdek, kasbiy muloqot metodlarini o'zlashtirish, o'z kasbining natijalari uchun ijtimoiy javobgarlik.

- o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi ixtiyoriy va hissiy fazilatlar, intellektual salohiyat, amaliy ko'nikmalar, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatları va shaxsning ijtimoiy-madaniy faoliyati darajasini aks ettiruvchi individual fazilatlarning o'zaro bog'liqligi asosida shakllanadi.

Rivojlangan davlatlarda shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malakada mutaxassisning kasbiy kompetentligi, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimi esa – bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim berishda eng asosiy ta'sirni o'qituvchi ko'rsatar ekan, o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlanganligi, ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarishda namoyon bo'ladi. Talabalarni to'g'ri tarbiya va bilim olishi, ularning baholari yaxshi bo'lishiga bog'liq. Quyidagi kompetentlikka berilgan bir qator tariflarini ko'rib chiqsak:

²² Alimov A.A. Bo'lajak kasb i o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida ta'lim faoliyatga tayyorlash: Psixologika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. - 48 b.

1. Kompetentlik – kasb talablariga mos kelishlik darajasini individual tavsifi (ko‘rsatkichi) (Markova A.K.).

2. Kompetentlik – tushunchalar tizimi va tushunish bo‘lishligini talab etadigan, faoliyatni amalga oshiruvchi qobilyat, yuzaga keladigan muammo va vazifalarni tezkor hal qilishga imkoniyat yaratuvchi, o‘ylashning mos ravishdagi tipi (Milovanova N.G., Prudayeva V.N.).

3. Kompetentlik – muayyan tushunchalar tizimi va tushunishlar talab etadigan amaliy faoliyatni amalga oshirish qobilyati, yuzaga keladigan muammolar va vazifalarni tezkor hal qilishni ta’minlaydigan tipga mos keladigan fikr yuritish.

4. (keng ma’noda) – yerdagi muvozanat holatini ta’minlash uchun inson tomonidan qo‘llanishi kerak bo‘lgan axloqiy jihatdan qayd etilgan talablar (Rudik G.A.).²³

Kompetentlik – bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasbiy faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan tavsiflanadi. Ayni paytda "kompetensiya" tushunchasining mohiyati to‘liq ochib berilgan bo‘lib, u ikki jihatdan namoyon bo‘ladi: kompetensiya talabalarning shaxsiy fazilatlari to‘plami va kasbiy sohaning asosiy talablari sifatida.

Kasbiy kompetentlikning shakllanishi va rivojlanishi – bu ijodiy rivojlanish, pedagog atrofdagi o‘zgarishlarga tez moslasha olishi, tez kirishish qobiliyati, jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishi o‘qituvchining kasbiy darajasiga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik madaniyatni takomillashtirish, o‘rganishga qiziqishning rag‘batlantiruvchi omili sifatida ishlab chiqilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlashtirishning qiziqishga qiziqishning rag‘batlantiruvchi omili sifatida ishlab chiqilishi kerak.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Oliy mahlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirotini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 27.07.2017 y., PQ-3151, O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari to‘plami, 2017 y.,

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”

²³ Alimov N.N. Kasb-hunar kolleji talabalarini texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash kasbiyasi (umumkasbiy fanlarni o‘qitish misolida). Ped.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya.– T.: 2009.–233 b.

07.02.2017 y., PF-4947, O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.,

4. O‘zbekiston Respublikasida pedagogik konsepsiyasi. – T.: O‘zPFITI, 1995. – 20 b.

5. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning kasbiy asoslari: ped. fan.nom. –T.: 2006. –182 b

6. Azizzoxjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedmahorat. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003 – 176 b.

7. Alimov N.N. Kasb-hunar kolleji talabalarini texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash kasbiyasi (umumkasbiy fanlarni o‘qitish misolida). Ped.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya.– T.: 2009.

N.SH. RUZMATOVA S. JALILOVA	MOTIVATSIYA MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILLARI	295
O.B.OZODQULOV S. KOMILJONOVA Z. AVLOQULOVA	O'QUV JARRAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA BUYUK ALLOMALARIMIZNING G'OYA VA FIKRLARINING TUTGAN O'RNI	299
O.B.OZODQULOV R. SHODIYEVA M. YULDASHOVA	BUGUNGI KUNDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O'RNI VA UNI YUKSALTIRISH OMILLARI	304
O.B.OZODQULOV G. BAHRIDINNOVA N. MIRZAUSMONOVA	PROEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH JARAYONIDA SHAXSNING PSIXODIAGNOSTIKASI	308
X.K.RAHIMOVA K. MAL'ZEVA	BNEDRHENIE CIFFROVYX TEKHNOLOGIJ V OBRAZOVATEL'NYY PROTSESS	313
X.K.RAHIMOVA E. LUKYANOVA K. CHIPURIN B. YOUNUSOVA	VOZMOZHNOSTI POVYSHENIA KACHESTVA OBRAZOVANIJA NA OSNOVE TEKHNOLOGII MEDIAOBRAZOVANIJA	316
SH.R.SAMAROVA A. ABDURAXMONOV F. AXMADOVA A. XOLMURODOVA	DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLAR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING O'ZIGA XOSLIGI	320
S.N.AMANGELDIYEV Z. JABORBERGANOVA	MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHNING INNOVATSION MUHITDAGI METODIKASI	323
B.N.TURAKULOV SH. KABULOVA S. MAMARAJABOVA Z. SAMINJANOVA	INSON QALBI EMOTSIANAL INTELLEKTNING YORQIN KUZGUSI	328
N.B.XUSANOVA Z. JABORBERGANOVA D. MUSINOVA SH. OLLOBERGANOVA	KICHIK MAKTAB YOSHIDA O'QUVCHILARNI MEHNATSEVARLIKKA O'RGATISH, MILLIY RUHDA SHAKLLANTIRISH	333
N.B.XUSANOVA S. TURG'UNOVA F. SHONAZAROVA	BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH	336
G.MIRZARAHAMOVA M. RAXIMOVA L. BAENOVA	PONNAVATEL'NAYA DEYATEL'NOST DETEY S DEFEKTAMI RECHI	338
G.MIRZARAHAMOVA M. PARDAEVA M. RAXIMOVA	HUTQ FAOLIYATI BA ULARNING XUSUSIYATLARI	341
C.M. YULDASHOVA O'. MUXAMMADIEV SH. O'NAROVA	PEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARINING KASBIY TAYYORGARLIK XUSUSIYATLARI	347
C.M. YULDASHOVA T. SADULLAYEVA M. PARDABOYEVA	TASNIFFLASH USULLARI BA TALABALARNING O'QUV NATIJALARINI BASHORAT QILISH	349
C.M. YULDASHOVA J. TO'XTAYEVA A. SULEYMANOVA	KASBIY SHAKLLANISH VA KASBIY FAOLIYATNI TADQIQ ETISH PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	352
D.R.ODILOVA	MTT XODIMLARI KOMPETENTLIGINI O'RGANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	355
M.J.ERNAZAROVA M. M.J.ERNAZAROVA M. IKROMOVA	TALABALARDA TA'LIM-TARBIYANI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	361
M.J.ERNAZAROVA O.B. XURSANOVA	BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	364